

DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN PSIXOKORREKSION ISHLAR BO'YICHA MAHALLIY VA XORIJIY KONSEPSIYALAR

Savriyeva Nozima Rahmatulloyevna

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada destruktiv axborotlarga qarshi psixokorreksion ishlar bo'yicha mahalliy va xorijiy konsepsiyalar tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, destruktiv axborotlar, ya'ni shaxslar va jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, manipulyativ yoki zararli ma'lumotlar tobora keng tarqalib bormoqda. Shu sababli, psixologik yordam va psixokorreksiya metodlari bu jarayonlarni tartibga solish, odamlarning axborotdan sog'lom foydalanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Mahalliy va xorijiy tajribalar asosida, psixokorreksiyaning turli usullari, masalan, emotsional va kognitiv qarashlarni o'zgartirish, ma'lumotni qayta ishlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi usullar tavsiflanadi. Shuningdek, ushbu ishda axborotning psixologik ta'siri va uning jamiyatda tarqalishining oldini olish uchun olib boriladigan psixokorreksion ishlarning samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: destruktiv axborot, psixokorreksiya, mahalliy konsepsiyalar, xorijiy konsepsiyalar, psixologik yordam, kognitiv psixologiya, tanqidiy fikrlash, psixologik ta'sir, psixokorreksion metodlar, jamiyatdagi psixologik o'zgarishlar.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida inson ongi va ruhiyatiga axborot orqali ta'sir ko'rsatish tobora dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Destruktiv axborotlarning inson psixologiyasiga ta'siri, ayniqsa, yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning ijtimoiy moslashuvi va ruhiy holatiga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli, bunday axborotlarning oldini olish va unga nisbatan psixokorreksion chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim masala hisoblanadi. O'zbekistonda destruktiv axborotlarga qarshi kurashish bo'yicha psixokorreksion yondashuvlar asosan quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan:

1. Ta'lim va tarbiya orqali profilaktika – Maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab bolalar ongiga axborotni tanqidiy qabul qilish ko'nikmalarini singdirish.
2. OAV va ijtimoiy tarmoqlar monitoringi – Yoshlar orasida zararli axborot tarqalishining oldini olish uchun ijtimoiy tarmoqlardagi kontentni tahlil qilish va nazorat qilish.
3. Psixologik xizmat ko'rsatish – Maktab va universitetlarda psixologik xizmatlarni kuchaytirish, yoshlarni psixologik himoya qilish usullarini o'rgatish.
4. Diniy va madaniy qadriyatlarni mustahkamlash – Milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani rivojlantirish orqali zararli ta'sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish.

Dunyoning turli mamlakatlarida destruktiv axborotlarning oldini olish va psixokorreksion ishlar bo'yicha turli xil yondashuvlar mavjud. Ular orasida quyidagilar ajralib turadi:

1. AQSh – "Media Literacy" (axborot savodxonligi) dasturlari orqali yoshlarni zararli axborotga qarshi immunitetini oshirish.
2. Yevropa Ittifoqi – "Digital Well-being" konsepsiyasi asosida axborot oqimini nazorat qilish va axborotdan oqilona foydalanish tamoyillari joriy etilgan.
3. Rossiya – "Informatsion Bezopasnost" dasturi doirasida zararli axborotlarning yoshlar orasida tarqalishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.
4. Xitoy – Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi zararli kontentga qarshi kuchli senzura tizimi hamda psixologik rehabilitatsiya markazlari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining barqarorligiga, aniqrog'i uning ijtimoiy, ma'naviy yuksalishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan destruktiv diniy, madaniy, ekstremistik va terroristik oqimlar, guruhlar faoliyatini nazariy-amaliy tahlil etib, destruktiv guruh, g'oya tushunchalarining genezisi, mohiyat va mazmuniga mavjud ilmiy nazariyalarga suyanan holda ta'rif berish, tasniflash, yoshlarning ushbu g'oyalar ta'siriga tushib qolmasligi uchun muayyan ijtimoiy-psixologik asosni yaratish hozirgi kunda psixologiya, pedagogika va umuman barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar oldida turgan muhim vazifalardandir. Mazkur masala, ya'ni yoshlarning destruktiv g'oyalar ta'siriga tushish muammosi alohida tadqiqot ob'ekti bo'lmagan. Shu nuqtai nazardan hozirgi vaqtda destruktiv g'oyalar va guruhlarning vujudga kelish sabablari, faoliyat doirasi kengayishining ijtimoiy-psixologik tadqiqi dolzarb nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda axborot xurujlariga qarshi kurashish, ayniqsa yoshlarni zararli va destruktiv ma'lumotlardan himoya qilish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, psixologik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish, ta'lim muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamkorligini mustahkamlash, axborot xurujlariga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish hamda psixologik markazlar tashkil etish kabi tashabbuslar hayotga tatbiq etilmoqda.

Psixologik amaliyotida yoshlar psixologiyasi, xulq-atvori va dunyoqarashida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni korreksiya qilishda psixoanaliz, kognitiv terapiya, xulq-atvor (individual) terapiyasi, geshtalt terapiya va boshqa terapevtik usullardan samarali foydalanib kelinmoqda. Psixokorreksion dasturni tuzish va uni tadqiqot jarayonida qo'llashda xulq-atvor terapiyasi (individual ishlash), kognitiv terapiya, psixodrama terapiyasi, Geshtalt terapiya usullaridan foydalanish uchun belgilangan tartib, me'yor va qoidalarga amal qildik. Shuningdek, tadqiqot olib borilayotgan o'smirlarning yosh davri va individual psixologik xususiyatlari, o'qish va kasb egallashi bilan bog'liq jarayonlar, oilaviy, milliy-madaniy va ijtimoiy-hududiy xususiyatlar ham alohida e'tiborga olindi.

Tadqiqotimizda psixokorreksion va rivojlantirish ishlari individual hamda guruhlarda olib borilgani bizga psixokorreksion hamda psixoterapevtik usullardan foydalanishni individual psixoterapiya, guruh psixoterapiya va ijtimoiy psixologik trening (korporativ trening) ko‘rinishlarida amalga oshirish uchun qulaylik tug‘diradi. Psixodrama terapiyasi guruh xarakterga ega bo‘lib, o‘smir psixologiyasida mavjud bo‘lgan o‘zgarish, xato yoki kamchilikni bartaraf qilish sahnalashtirilgan tomosha ko‘rinishiga qiyoslab o‘tkaziladi va psixodramaning davomligi bilan aynan ana shu muammo hisoblangan hulq-atvor o‘zgarishlari va kamchiliklar tuzatib boriladi. Xulq-atvor terapiyasi - aynan yoshlar xulqatvori, o‘zaro munosabat tizimi, tarbiyasi, yo‘nalganligi va dunyoqarashida yuzaga kelgan o‘zgarishlar va salbiy holatlarning korreksiyalashda jahon psixologiyasi amaliyotida asosiy va ishonchga sazovor metod hisoblanadi. Terapiyaning bu usuli o‘qitish, tarbiyalash qonuniyatlariga asoslangan va ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, rivojlanish psixologiyasi nazariyasiga tayanadi. Xulq-atvor terapiyasining samaradorligi asosan uchta omilga bog‘liqdir:

- o‘smirning ijtimoiy muhiti (oil, maktab, mahalla-guzar va b.) doirasini nazorat qilish imkoniyati;
- o‘smir xulq-atvori, yo‘nalganligi va dunyoqarashidagi salbiy o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati;
- xulq-atvor terapiyasining (individual yondashuvning) nisbatan aniq yo‘nalganligi, qisqa va qulayligi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli maqsadlarda qo‘llanilayotgan ijtimoiypsixologik treninglar va uning alohida muhim shakli bo‘lgan individual va korporativ treningdan foydalanish bo‘yicha muayyan tajribalar to‘plangan. Bu yo‘nalishda G‘arbda va Rossiyada qator ilmiy tadqiqotlar (E.Berne, D.Jonson, D.Masumoto, K.Levin, G.Andreeva, A.Donsov, V.Kan-Kalik, M.Lebedeva, Yu.Emelyanov, N.Bogomolova, N.Malisheva va boshq.) olib borilgan. Korporativ treningni yoshlar xulq-atvorini o‘zgartirish va ulardagi salbiy o‘zgarish va noto‘g‘ri tasavvurlarni bartaraf qilish vositasi va uslubi sifatida bizning milliy madaniy muhitimizda o‘tkazilgan ilmiy ishlar yetarlicha emas. Bu esa tadqiqotning amaliy, tatbiqiy bosqichida aynan korporativ treningdan foydalanish g‘oyasini ilgari surishga asosdir.


Tadqiqotda ishtirok etgan nazorat va tajriba guruhi sinaluvchilarining 60 nafari o‘smir yigitlar, 60 nafari o‘smir qizlarda o‘tkazildi. Tadqiqotda 13-14 yoshdagi o‘smir yigit va qizlar ishtirok etishdi. Jami dissertatsion tadqiqotda 120 nafar sinaluvchi ishtirok etdi.

“Maskulinlik – feminililik”ni aniqlash metodikasi Frayburg shaxsiy so‘rovnomasidan olingan “maskulinlik - feminililik” shkalasi asosida ishlab chiqilgan metodika, Kellerman-Plutchik so‘rovnomasi shaxsning “Men”ini psixologik himoya mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan metodika hamda K.Leongard metodikasiga

asoslangan Shmishekning xarakter aktsentuatsiyasini aniqlash metodikasi asosida o'smirlarda destruktiv axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari bo'yicha tadqiqotlar olib bordik.

1-jadval “Maskulinlik – feminililik”ni aniqlash metodikasi bo'yicha o'smirlarning (yigit va qiz misolida) ko'rsatkichlari

O'smir yigitlar n=60			O'smir qizlar n=60		
	Maskulinlik	Feniminlik		Maskulinlik	Feniminlik
Soni	51	9	Soni	56	4
foizi	85%	15%	foizi	93%	7%



1-rasm. Gistogramma

Shmishek metodikasi bo'yicha 88 ta savoldan iborat so'rovnoma asosida o'tkazilgan test natijalarini baholashda har bir savolga javoblarni belgilab bo'lgandan so'ng, 10 ta shkala tegishli bo'lgan savollarning birlamchi ballari alohida-alohida hisoblab chiqiladi (savol oxirida ushbu savol qaysi shkalaga tegishli ekani ko'rsatilgan). “-” belgisi qo'yilgan raqamlar sinalluvchining “yo‘q” javobi to‘g‘ri kelsa, 1 ball bilan belgilanadi.

Shkala bo'yicha hosil bo'lgan birlamchi ballar jadvalda ko'rsatilgan koeffitsientga ko'paytiriladi. Agar hisoblab chiqilganda ballar 12 ball dan oshsa, xarakter aktsentuatsiyasining namoyon bo'lishi kuzatiladi.

2- jadval. O'smir yoshdagi yigitlarning Shmishek testi bo'yicha ko'rsatkichlari


Shk ala raqami	Aksentuatsiya tiplari	Koefsint	Birlamchi ballar	Aktsentuatsi ya ko'rsatkichi birlamchi ballarning koeffitsientga ko'paytirilgani
1	Gipertim	3	8	24
2	Xavotirlanuvchi	3	7	21
3	Distim	3	3	9
4	Rasmiy (Pedantik)	2	3	6
5	Qo'zg'aluvchan (Affektiv-eksploziv)	3	8	24
6	Emotiv	3	5	15
7	Rigid	2	8	24
8	Namoyishkor (Demonstrativ)	2	8	24
9	Tsikloid	3	7	21
10	Ekzaltir	6	6	36

2-jadval ko'rsatkichlaridan ko'rinib turibdiki, aktsentuatsiya gipertim, namoyishkorlik, rigidlik, tsikloid va ekzaltir tiplariga xosdir. Bu esa haqiqatdan ham o'smirlik yosh davrida kuzatiladigan aktsentuatsiyaga mos keladi.

3- jadval O'smir yoshidagi qizlarning Shmeshik testi bo'yicha ko'rsatkichlari

Shkala raqami	Aksentuatsiya tiplari	Koefsint	Birlamchi ballar	Aktsentuatsiy a ko'rsatkichi birlamchi ballarning koeffitsientga ko'paytirilgani
1	Gipertim	3	8	24
2	Xavotirlanuvchi	3	8	24
3	Distim	3	4	12
4	Rasmiy (Pedantik)	2	5	10
5	Qo'zg'aluvchan (Affektiv-eksploziv)	3	8	24
6	Emotiv	3	6	18
7	Rigid	2	4	8
8	Namoyishkor (Demonstrativ)	2	5	10
9	Tsikloid	3	7	21
10	Ekzaltir	6	5	30

3-jadval ko'rsatkichlaridan ko'rinib turibdiki, o'spirin qizlarda aktsentuatsiya o'smir qizlardan biroz farq qilsa-da, ayrim skalalarda yaqinlik kuzatildi. Bu esa xarakter aktsentuatsiyasi hamda deviant xulq-atvorga moyillik faqat o'smirlik davriga xos degan fikr noto'g'ri ekanligini anglatadi.



2- rasm. Gistrogramma

Tadqiqot ishimizda qo'llanilgan uchinchi metodika Kellerman-Plutchik so'rovnomasi bo'lib, shaxsning "Men"ni psixologik himoya mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan. Metodika bo'yicha tadqiqot natijalarini qayta ishlashda 8 ta ego himoya mexanizmlari 8 ta skalani hosil qilib, ularning har biriga alohida ta'kidlar to'g'ri keladi.

Siqib chiqarish: 6, 11, 31, 34, 36, 41, 55, 73, 77, 92 – 10 ta.

Regressiya: 2, 5, 9, 13, 27, 32, 35, 40, 50, 54, 62, 64, 68, 70, 72, 75, 84 – 17 ta.

O'rnini almashtirish: 8, 10, 19, 21, 25, 37, 49, 58, 76, 89 – 10 ta.

Inkor etish: 1, 20, 23, 26, 39, 42, 44, 46, 47, 63, 90 – 11 ta.

Proyektsiya (ko'chirish): 12, 22, 28, 29, 45, 59, 67, 71, 78, 79, 82, 88 – 12 ta.

Kompensatsiya: 3, 15, 16, 18, 24, 32, 52, 57, 83, 85 – 10 ta.

Giperkompensatsiya: 17, 53, 61, 65, 66, 69, 74, 80, 81, 86 – 10 ta.

Ratsionalizatsiya: 4, 7, 14, 30, 38, 43, 48, 51, 56, 60, 87, 91 – 12 ta.

Tadqiqotimizda ishtirok etgan o'smir yoshdagi yigit va qizlarda "Men"ni himoya qilishda qaysi xususiyatlar ustunligini tekshirishni maqsad qilganmiz.

Xulosa. Destruktiv axborotlar va ularning psixologik ta'siri jahon miqyosida dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Axborotning salbiy ta'siri, shaxslar va jamiyat uchun zararli oqibatlariga olib kelishi mumkin, shuning uchun psixokorreksion ishlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Mahalliy va xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan psixokorreksion usullar, axborotning salbiy ta'sirini kamaytirish, shaxslarni axborotga nisbatan tanqidiy fikrlashga o'rgatish va emotsional muvozanatni tiklashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu usullar yordamida, odamlarning psixologik holati yaxshilanadi va ular destruktiv axborotlarga nisbatan immunitet hosil qilishi mumkin. Shuningdek,

psixokorreksion ishlar faqat individual darajada emas, balki jamiyatning ma'rifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligini ta'minlash va psixologik yordamni kengaytirish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda, bu esa psixologlarning va ijtimoiy tashkilotlarning rolini yanada muhim qiladi. Barcha sohalarida bu muammoning hal etilishi, jamiyatning barqaror va sog'lom rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2017– 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli [Farmoniga](#) 1-ilova // <http://www.lex.uz>.
2. Dusmuxamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh. K., Alimbaeva Sh.T. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2013 .
3. Ijtimoiy himoya: atamalar izoxli lug'ati. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. -321 b.
4. Ivanov I., Zufarova M. "Umumiy psixologiya". O'z.FMJ., 2008.
5. Imom al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Saxixi Buxoriy: al-jome' as-saxix: (ishonarli to'plam): 2 kitob. /Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Abdulaziz Mansur taxriri ostida. - T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi", 2008. T. 1. 712 b. T. 2. - 624 b.
6. Nishonova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M. "Psixologik xizmat".T. "Fan va texnologiyalar" nashriyoti 2014 y.
7. O'smirlarda destruktiv xulq ko'rinishlarini shakllanishi psixologik diagnostikasi va korrektsiyasi. Magistrlik diss-si. Andijon.2016
8. O'smirlarda destruktiv xulq ko'rinishlarini shakllanishi psixologik diagnostikasi va korrektsiyasi. Magistrlik diss-si. Andijon.2016
9. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.
10. Xaydarov F.I., Xalilova N. "Umumiy psixologiya". T.: "Fan va texnologiyalar" markazining bosmaxonasi : 2009.